O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2023 - yil 15 - mart 158-4-0-Q/23 Qashqadaryo viloyati hokimligi

Chiroqchi tumani hududidagi umumfoydalanuv yo‘llarini saqlash, harakat xavfsizligini ta’minlash va og‘ir vaznli yuk avtotransport vositalari harakatini tartibga solish to‘g‘risida

Chiroqchi tumanidagi umumfoydalanuv yo‘llarini saqlash, harakat xavfsizligini ta’minlash va og‘ir vaznli yuk avtotransport vositalari harakatini tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7 va 20-moddalariga hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan talablariga asosan, Chiroqchi tuman hokimligining 2022-yil 22-dekabrdagi 01-287-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN :

1. Chiroqchi tumani hududidagi umumfoydalanuv yo‘llarini saqlash, harakat xavfsizligini ta’minlash va og‘ir vaznli yuk avtotransport vositalari harakatini tartibga solish yuzasidan rasmiylashtirilgan dalolatnoma va viloyat avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasining xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chiroqchi tumani hududidagi umumfoydalanuv yo‘llarini saqlash, harakat xavfsizligini ta’minlash va og‘ir vaznli yuk avtotransport vositalari harakatini tartibga solish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatiladigan umumfoydalanuv yo‘llari ro‘yxati, ularga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi (B.Raximov)

mazkur qarorning ilovasi bilan tasdiqlangan umumfoydalanuv yo‘llariga belgilangan tartibda yo‘l belgilari o‘rnatilishini tashkillashtirsin.

4. Qashqadaryo viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (A.Sadirov):

og‘ir vaznli yuk tashuvchi avtomobillari M-39 “Toshkent-Termiz” va A-380 “G‘uzor-Qarshi-Buxoro-Nukus-Beynou” avtomobil yo‘llari orqali harakatlanishini ta’minlasin;

mazkur qarorning ilovasi bilan tasdiqlangan umumfoydalanuv yo‘llarida har bir o‘qqa tushadigan vazni 10,0 tonnadan yuqori bo‘lgan avtomobillar harakati taqiqlanishi munosabati bilan mazkur avtomobil yo‘llarida nazoratni yanada kuchaytirsin, qonunbuzarlarga nisbatan belgilangan tartibda ma’muriy jazo choralarini qo‘llasin.

5. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov va Qashqadaryo viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i A.Sadirov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **M.Azimov**

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023 yil 15 martdagi
158-4-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Chiroqchi tumani hududidagi umumfoydalanuv yo‘llarini saqlash, harakat xavfsizligini ta’minlash va og‘ir vaznli yuk avtotransport vositalari harakatini tartibga solish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatiladigan umumfoydalanuv yo‘llari ro‘yxati, ularga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan yo‘llar nomi	O‘rnatiladigan yo‘l belgisini nomi
1	4P 84 “Yakkabog‘ - Chiroqchi - Yettitom - Sho‘rbozor” avtomobil yo‘lining 26-45 km.	3.11 (30t) “*Haqiqiy umumiy vazni* cheklangan” 3.12 (10 t) “o‘qqa tushadigan og‘irlik cheklangan”
2	4K 287 “Qorakamar - Qalqama” avtomobil yo‘lining 0-36 km.	3.11 (30t) “*Haqiqiy umumiy vazni* cheklangan” 3.12 (10 t) “o‘qqa tushadigan og‘irlik cheklangan”
3	4K 288 “Torjilg‘a - Uyshun - Oqchova” avtomobil yo‘lining 10-31 km.	3.11 (30 t) “*Haqiqiy umumiy vazni* cheklangan” 3.12 (10 t) “o‘qqa tushadigan og‘irlik cheklangan”
4	4K 337 “Kitob - Beshterak - Chiroqchi” avtomobil yo‘lining 24-29 km.	3.11 (30 t) “*Haqiqiy umumiy vazni* cheklangan” 3.12 (9 t) “o‘qqa tushadigan og‘irlik cheklangan”
5	4K 342 “A378 avtomobil yo‘lidan - Uyshun q. - 4R 84 avtomobil yo‘li” 0-30 km.	3.11 (30 t) “*Haqiqiy umumiy vazni* cheklangan” 3.12 (10 t) “o‘qqa tushadigan og‘irlik cheklangan”